“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida intellektual mulkni tijoratlashtirish va muhofaza qilishning O‘zbekistondagi istiqbollari

Farhod Holiqnazarov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi sirtqi magistraturasi 2-bosqich tinglovchisi
Huquqshunos
e-mail: Farhodholiqnazarov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada intellektual mulkning zamonaviy dunyo iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati, uning raqamli iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqligi hamda milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. XXI asrda raqamli transformatsiya, internet platformalarining kengayishi va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan talabning ortishi va uning iqtisodiy o‘sishdagi roli yoritilgan. AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi misolida intellektual mulkni tijoratlashtirish, texnologiyalar transferi va innovatsion infratuzilmalarni shakllantirishning samarali yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda intellektual mulkni muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy asoslar va amaldagi muammolar tahlil etilgan. Muallif fikriga ko‘ra, mamlakatda intellektual mulk huquqini samarali himoya qilish uchun huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda sohada ixtisoslashgan sud tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Калит сўзлар. Intellektual mulk, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, texnologiyalar transferi, tijoratlashtirish, huquqiy muhofaza, milliy iqtisodiyot, sud islohotlari, huquqni qo‘llash amaliyoti, innovatsion infratuzilma

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение интеллектуальной собственности в современной мировой экономике, а также её тесная взаимосвязь с цифровой экономикой и влияние на национальное экономическое развитие. В XXI веке цифровая трансформация, развитие интернет-платформ и быстрый рост инновационных технологий значительно увеличили спрос на объекты интеллектуальной собственности и усилили их влияние на экономический рост. На примере таких развитых стран, как США и Япония, рассмотрен успешный опыт коммерциализации интеллектуальной собственности, трансфера технологий и формирования инновационной инфраструктуры. Кроме того, в статье исследуются проводимые в Узбекистане реформы, правовые основы и практические проблемы защиты и развития интеллектуальной собственности. Автор отмечает, что для обеспечения эффективной защиты прав

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

интеллектуальной собственности необходимо совершенствовать правоприменительную практику, повышать уровень правовой культуры граждан и развивать специализированную судебную систему в данной сфере.

Ключевые слова. интеллектуальная собственность, цифровая экономика, инновации, трансфер технологий, коммерциализация, правовая защита, национальная экономика, судебные реформы, правоприменительная практика, инновационная инфраструктура

Annotation. This article analyzes the role and significance of intellectual property in the modern global economy and its close interconnection with the digital economy, as well as its impact on national economic development. In the 21st century, digital transformation, the expansion of internet platforms, and the rapid growth of innovative technologies have significantly increased the demand for intellectual property objects and strengthened their influence on economic growth. The study highlights the experience of developed countries such as the United States and Japan in commercializing intellectual property, promoting technology transfer, and developing innovative infrastructures. Furthermore, the article examines the ongoing reforms, legal foundations, and practical issues related to the protection and development of intellectual property in Uzbekistan. According to the author, ensuring effective protection of intellectual property rights in the country requires improving law enforcement practices, enhancing citizens’ legal awareness, and establishing a specialized judicial system in this field.

Keywords. intellectual property, digital economy, innovation, technology transfer, commercialization, legal protection, national economy, judicial reforms, law enforcement practice, innovative infrastructure

Intellektual mulk dunyo iqtisodiyotining murakkab va muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bundan 30-40-yil avval, intellektual mulkning ahamiyati ancha cheklangan va asosan sanoat, xizmatlar va ayrim ilm-fan sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ammo, XXI-asrda raqamli iqtisodiyotning yangilanish va taraqqiyot jarayonlarida intellektual mulkning o‘rni bunday sohalardan ham muhimroq bo‘lib ketdi. Raqamli transformatsiya, internet platformalarining taraqqiyoti va zamonaviy texnologiyalar intellektual mulkka bo‘lgan talabni oshirib, uning bozordagi ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Intellektual mulk ijodiy va innovatsion faoliyatning natijalari bo‘lib, u o‘zining huquqiy huquqlari orqali mualliflarga moliyaviy foyda keltiradi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi Intellektual mulkni muhofaza qilish va undan foydalanishga yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu safarda intellektual mulk raqamli mahsulotlarni, kontentni va xizmatlarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Yalpi ichki mahsulotning o‘sish dinamikasi va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardosh ko‘rsatkichlari fuqarolik muomalasida intellektual faoliyatning qanday natijalari jalb qilinishiga, ularning narxi va aylanish tezligiga bog‘liq.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2025-yilgacha bo‘lgan davrda intellektual huquqlar aylanishi uchun intellektual mulk va raqamli infratuzilmalarning roli milliy iqtisodiyotning o‘sishini va natijada mamlakatning dunyodagi ta’sirini belgilovchi asosiy omil bo‘ladi. Buning shartlari global raqamli tarmoqlarning rivojlanishi bilan yaratilgan bo‘lib ularning 70 foizidan ko‘prog‘i intellektual mulk obyektlarining harakati hisoblanadi. Intellektual mulk instituti zamonaviy global iqtisodiyotning yadrosi bo‘lib “moddiy” bozorlarning o‘sish sur’atlaridan yuqori, yiliga 10 foizdan ko‘proq o‘smoqda (Xitoy- 23%, AQSH-5%, Fransiya-2%, Rossiya-5%).

Shubhasiz, bugun ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lish mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Jahon savdo tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra intellektual mulk obyektlari savdosida AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya yetakchilik qilmoqda. Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar keyingi o‘rinlarda borayotir. Bunga ko‘p jihatdan davlat siyosatining kuchli raqobatni yuzaga keltirishga, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni faol joriy etishga yo‘naltirilgani bilan erishilmoqda.

Innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash borasida turli davlatlarda o‘ziga xos tajriba to‘plangan. Masalan, AQSH universitetlarida innovatsion infratuzilmalarni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bunday infratuzilmalarda ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirilib, texnologiyalar transferi amalga oshiriladi, ya’ni ishlab chiqarishga keng joriy qilinadi. Mamlakatda 1980-yili Bey-Doul qonuni qabul qilingan. Bu esa innovatsion jarayonlarning keskin rivojlanishiga, universitetlarga o‘z ilmiy ishlanmalari orqali daromad olishga keng yo‘l ochib bergan. Mazkur islohotlar natijasida AQSHda universitetlar, sanoat korxonalari va investorlar o‘rtasida manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yuvchi tizim yaratilgan. Ayniqsa, bu borada Kaliforniya texnologiya instituti, Stenford universiteti va Massachusets texnologiya institutining tajribasi e’tiborga loyiqdir.

Xususan, Kaliforniya texnologiya instituti aniq fanlar va injenerlik sohasidagi eng yetakchi institutlardan biri bo‘lib, unda tadqiqotlarga homiylik qilish ofisi, texnologiyalar transferi ofisi va tadbirkorlar klubi kabi innovatsion infratuzilmalar tashkil etilgan. Stenford universitetining asosiy innovatsion infratuzilmasi esa texnologiyalarni litsenziyalash ofisi hisoblanib, uning funksiyasi universitetning intellektual mulkini boshqarishdan iborat. Massachusets texnologiya institutida texnologiyalarni litsenziyalash ofisi va tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan boshqa tuzilmalar mavjud.

Yaponiyaning bu boradagi tajribasi ham ko‘p davlatlar uchun namuna bo‘lishi mumkin. Ushbu mamlakat yuksak iqtisodiy rivojlanishga chet el innovatsiyalarini faol qo‘llash orqali erishgani ko‘pchilikka yaxshi ma’lum.

XX asrning 80-yillariga kelib, Yaponiyaning iqtisodiy siyosati o‘z ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratiladi. Mamlakatda 1983-yili texnopolislarni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shuningdek, milliy texnoparklarni rivojlantirish uchun Yaponiya hukumati tomonidan maxsus dasturlar qabul qilingan. Mazkur islohotlar natijasida dastlab 100 dan ziyod texnopark tashkil etilgan.

Texnoparklar ishbilarmonlik va ilmiy-texnik soha o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Shunisi e’tiborliki, Yaponiya texnoparklarining 70 foizga yaqini mintaqalarda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. Shundan 58 foizi yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan.

O‘zbekistonda ham intellektual mulkni muhofaza qilish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va innovatsiyani rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda intellektual mulkni muhofaza qilishning huquqiy bazasi shakllantirilgan, bu borada 10 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta qarori, hukumatning 7 ta qarori, 15 ta idoraviy me’yoriy hujjat qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston intellektual mulkni himoya qilish sohasidagi 12 ta xalqaro hujjatga, 8 ta davlatlararo, 10 ta hukumatlararo va 17 ta idoralararo shartnoma va bitimga qo‘shilgan.

Mamlakatimizda milliy patent tizimining yaratilgani va xalqaro tashkilotlar bilan uyg‘unlikda faoliyat olib borayotgani ilmiy-texnika yangiliklarining innovatsion tadbirkorlikka tatbiq etilishiga keng sharoit yaratmoqda. Jahon intellektual mulk tashkilotining ma’lumotiga qaraganda, O‘zbekiston MDH davlatlari ichida patentlashtirish va tovar belgilarini ro‘yxatga olish bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekistonda intellektual mulk huquqini himoya qilishda normativ-huquqiy asoslarining yetarli emasligi yoki amaldagi qonunchilikning umum e’tirof etilgan tamoyillarga mos kelmasligidan emas. Mamlakatimizda bu boradagi muammolar asosan mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liqdir. Buni esa bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Jumladan, fuqarolarning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyati darajasi pastligi ham intellektual mulk huquqini himoya qilishga salbiy ta’sir etmay qolmaydi.

Shunday qilib, intellektual mulk bo‘yicha qonunlarni takomillashtirish va rivojlantirish muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadi, O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini tartibga solish, uni muhofaza qilish va rivojlantirish uchun milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy asoslar yetarli. Bu boradagi muammo sudlarda va huquq-tartibot organlari hamda huquqni qo‘llashning boshqa yo‘nalishlarida intellektual mulk huquqining qonunchilik asoslarini amalga oshirishni real ta’minlash bilan bog‘liqdir. Mazkur muammo ko‘p qirrali bo‘lib, uning yechimi moddiy-texnik, moliyaviy, huquqiy va hatto psixologik sabablarga borib taqaladi.

Intellektual mulk huquqini ishonchli himoya qilish tizimini samarali deyish qiyin. Rivojlangan davlatlarning bu sohadagi amaliyoti qanchalik mukammal bo‘lmasin, uni mamlakatimizning huquqiy tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmaydi. Zero, huquqni qo‘llash amaliyotida qonunlarni mukammal bo‘lishini o‘zi yetarli emas. Bu huquqni qo‘llash tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga va fuqarolarning huquqiy madaniyatiga ham bog‘liqdir.

Ta’kidlash lozimki, intellektual mulk huquqi bo‘yicha maxsus sudning mavjudligi intellektual mulk tizimi samarali ishlashining muhim garovi

hisoblandi. Chunki, maxsus sudlarda ishlarni ko‘rish sudlar intellektual mulk huquqi sohasiga ixtisoslashishi natijasida sudyalarni mazkur sohada chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishiga olib keladi. Sudyalarning ixtisoslashuvi sud qarorlarining sifati oshishiga, qonunga zid yoki yetarlicha asoslanmagan qaror chiqarilishini oldini oladi. Shuningdek, sud amaliyotining barqarorligi hamda bir toifadagi ishlar bo‘yicha chiqarilgan qarorlarni huquqiy jihatdan va mantiqan uyg‘unligini ta’minlaydi. Sud amaliyotida turli tushunmovchilik va turli xil talqinlarni oldini olinadi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish masalalari yo‘nalishi bo‘yicha sud tizimida o‘tkazilgan jiddiy islohotlar, yagona O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etilishi, ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlar, iqtisodiy sudlarni tashkil etilganligi intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilishga, ayniqsa bu borada sud amaliyotini shakllanishida muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Okyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. - T.: TDYUI, 2004.B.421.

2. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.

3. www.ima.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining rasmiy sayti.

4. www.wipo.int – Butunjahon intellektual mulk tashkilotining rasmiy sayti.